

KULGIGA ESH TAQDIRLAR TASVIRI

Xuddi bitta odam kabi butun millat ham, bir qancha uluslar yig'indisi bo'lmish jamiyat ham bir ma'naviy-axloqiy holatdan boshqasiga og'riqsiz o'tib ketolmaydi. Shunday davrda yashab ijod qilish chekiga tushgan ijodkor shaxs o'z atrofidagi odamlar va ularni yuzaga keltirgan sharoitga murosasizlik bilan kinoyaviy nazar tashlaganidan hayotdagi nuqsonlarni oshiribroq tasvirlashga moyil bo'ladi. Shuning uchun ham italyalik yozuvchi, yangi romanchilik yo'naliishi nazariyotchisi Umberto Eko: "Kinoya metanutqning o'yini, bayonning kvadratidir", - deydi. Bu so'zlarda kinoya va piching aralashgan badiiy ifodaning zalvori oddiy tasvirdan ancha ortiq bo'lishi aks etadi.

Ijodkorning fikrlash darajasi yuksalib, universallashib ochun miqiyosiga ko'tarilganda ham odamning tutumlari va olamning hodisalariga kinoyaviy yondashuv ustuvorlik qiladi. O'z milliy qobig'ini yorib chiqib, o'zgalarga yaqinlashayotgan ijodkorda hajviy-kinoyaviy tasvir asosiy ifoda vositasiga aylanadi. Hatto, mutlaqo hajviy yo'naliishda bo'lмаган асарларда ham hayot realliklari va odamlarning tutumlariga hajviy-kinoyaviy nazar bo'y ko'rsatadi. Negaki, bunday vaqtida estetik tafakkur voz kechilayotgan milliy qadriyatlardan zada bo'lgani holda o'zlashtirilishi kerak bo'lgan qadriyatlarga hali begona bo'ladi. Qat'iy to'xtamni belgilab olmagan ijodkor atrofidagi olam va odamlarga kulgi nazari bilan qarashni ma'qul biladi.

Shunisiyam borki, erkin odamgina hazilga moyil bo'ladi. Doim amal qilib yurgan ma'naviy qadriyatlар tizimida keskin o'zgarishlar ro'y bersa, ijodkor odamning hazili kinoya va piching tusini oladi. Shu bois oldinlari Murod Muhammad Do'st, Erkin A'zam, Ahmad A'zam singari ayrim adiblar ijodidagina mavjud bo'lgan kinoyaviy usul endilikda ulardan tashqari Abduqayum Yo'ldosh, To'xtamurod Rustam, Luqmon Bo'rixon, Sobir O'nar kabi ko'plab yozarmanlarning ham ijodiy qiyofasini belgilaydigan jihatga aylanib bormoqda. Natijada, hozirgi o'zbek adabiyotida kinoya, piching ohangi g'oyat kuchayib, hatto, kesatiq milliy adabiyotning qiyofasini belgilaydigan darajaga keldi. Qadriyatlар almashayotgan, axloqiy-ma'naviy qarashlardagi tub o'zgarishlar sababli ularning qadri bir qadar tushgan hozirgiday davrda adabiyotda kinoya ustuvor bo'lishi tabiiydir.

O'ta murakkab va ko'pqatlamlı ijtimoiy-biologik hodisa bo'lmish kulgiga turli mintaqa davrlarda bir-birini inkor etuvchi baholar berib keligan. Kunbotish estetika va etika ilmlari hamda amaliyotida kulgi tom ijtimoiy hodisa, u hamisha qandaydir nuqson, illat ustidan qo'zg'atiladi degan qat'iy qarash shakllangan

bo'lsa, islomda kulgiga shaytoniy maylning namoyon bo'lishi tarzida salbiy munosabat qaror topgan. Keyingi vaqtda olib borilayotgan izlanishlar kulgingining ko'proq shaxsiy-individual tabiiy-estetik hodisa ekanini ko'rsatmoqda. Negaki, kulgida did va kayfiyat hal qiluvchi o'rinni tutadi: kimgadir o'ta kulgili tuyulgan holat ikkinchi bir kishiga ta'sir ham qilmasligi, uchinchi bir shaxsda esa ruhiy og'riq qo'zg'ashi mumkin. Demakki, kulgi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi ham, shaxsiyatga doir xususiyatni aks ettirishi ham mumkin. Ko'rinadiki, umumiyligi individuallikda namoyon bo'lgan kulgida universallik mavjud.

Sho'ro davrida sinfiy ko'zqarash asosida paydo bo'lgan bir noto'g'ri yondashuv keng yoyilgandi. Unga ko'ra har qanday kulgi nimanidir inkor etishga, kimlarnidir yondirib-kuydirishga, nimalarnidir fosh qilishga qaratilgan bo'lardi. Kulgida avvalo kulgi emas, kuch, qarama-qarshilik, kurash ko'rildi. Holbuki, kulgida kulgi javhari borligining o'zi kulgiga loyiq kamchilikka bo'lgan tanqidiy nazarni bir qadar yumshatadi. Kulishning o'zi o'ziga xos baho, munosabat, yondashuvni anglatadi. Shu ma'noda kulgingining hajviy xususiyatiga, uning satira va humor kabi turlarga bo'linishida fosh qilish darajasining mezon qilib olinishiga urg'u berish unchalar to'g'ri bo'limgan qarashligi anglashiladi.

Odamlar va ijtimoiy qatlamlararo munosabatlarga sinfiy yondashuvdan qutulingan bugungi o'zbek adabiyotida fosh qilguvchi emas, balki sof, yorug', umidbaxsh kulgiga tabiiy ehtiyoj paydo bo'lgandi. Ahmad A'zamning "O'zi uylanmagan sovchi" romanini ana shu ehtiyojning mahsuli o'laroq yaratilgan asar deyish mumkin. Ushbu asarning bosh xususiyati o'zbek tayanadigan ma'naviy oyinlarning qadimiyligi bilan globallahuv tufayli xalqning bugungi turmush yo'siniga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi tutumlar o'rtasidagi nomuvofiqlik va o'zgachaliklardan tug'ilayotgan kulgili holatlarni aks ettirishdan iboratdir. Yozuvchi romanda tasvirga olingan hamma narsada kulgi ko'ra bilgan va ulardan kulgi chiqara olgan. Ayni vaqtda kulgi hosil qilishda zo'rakilikka, sun'iylikka yo'l qo'yмаган ham.

Yozuvchi asarda tasvirlangan o'nlab personajlarning birortasini ham qandaydir bir ijtimoiy qatlarning vakili bo'lmish tipik obraz sifatida ko'rsatishga urinmaydi. Balki ularning har birini betakror shaxslar sifatida aks ettirishga intiladi. Shu sababli romandagi timsollar jonliligi, tirikligi, birovga o'xshamasligi bilan o'quvchi diqqatini tortib, o'ziga mahliyo qiladi. Asarda har birimizning atrofimizdagi o'z yuksakligidan quyi tusholmaydigan shaxslar va o'z tubanligidan yuksala bilmaydigan kaslar timsoli puxta aks ettirilgan.

Romanda iste'molchilik mayli axloq darajasiga ko'tariilib borayotgan hozirgi sharoitda ham ezgu ma'naviy sifatlar asl qimmatini yo'qotmasligi tasvirlangan.

Nimanidir sotib olish, qo'lga kiritish, nimagadir ega bo'lish odamlikning etaloni, bosh belgisiga aylangan, moddiy iste'moldan bo'lak narsalarga ikkinchi, uchinchi, hatto, o'ninchi darajali deb qaraladigan sharoitda ham ildizlari g'oyat teran ma'naviy qadriyatlar eskirmasligi asarda ortiqcha zo'riqishlarsiz oddiy odamlarning jo'ngina tirikchilik yo'sinlarini tasvirlash asnosida ta'sirli aks ettirilgan.

Bugungi milliy adabiyotimizda ro'y berayotgan yana bir holatni ta'kidlash kerakki, uncha uzoq bo'limgan o'tmishimizda adabiyotning kinolashish jarayoni kechib, qator badiiy asarlar kinoga aylantirilgan bo'lsa, bugun teskari kechim sodir bo'lmoqda. Ya'ni milliy kinomiz shiddat bilan adabiyotlashib bormoqda. Endilikda kino uchun bitilgan badiiy yaratiqlarning o'quvchilar tomonidan adabiyot sifatida qabul etilishiga ko'nikib ham qolindi. Hozirda Sh. Xolmirzaev, M. Muhammad Do'st, E. A'zam, U. Azim, A. A'zamlarning kinobitiklari rosmana badiiy asarlar sifatida o'qilmoqda. YOzuvchi Ahmad A'zamning "O'zi uylanmagansovchi" asarining janri ham garchi "gurung roman" deb qo'yilgan bo'lsada, to'lig'icha kinossenariy sifatida yozilgan, binobarin, u "kinoroman" yukini ko'taradi va bejiz bu asar asosida ko'pqismlı videofilm olinmagan.

"O'zi uylanmagansovchi" kinoromanining markaziy obrazi Sulton bo'lib, asardagi barcha voqealar u yoki bu darajada unga daxldor qilib tasvirlangan esada, aslida roman syujetini Nozim timsoli harakatga keltiradi. Asarda aks ettirilgan tutumiga ko'ra Nozimni tafakkur generatori deyish mumkin. Bu talaba yigitdag'i adoqsiz humor, beedad quvnoqlik, ezgulikka ishonch va unga intiluvchanlik, topqirlik tasviridan yog'ilib turgan nur nafaqat bu timsol, balki butun asarni yog'dulantirib yuborgan.

Olamshumul ijtimoiy muammolar ko'tarmagan holda oddiy odamlarning oddiy munosabatlarini ta'sirchan yo'sinda ko'rsatish orqali o'qishli asar yaratish katta mahorat talab qiladi. Aslida-ku, odam faqat ijtimoiy munosabatlar og'ushidagina yashamaydi, binobarin, uning tabiatidagi yaxshi-yomon jihatlar ham ijtimoiy to'qinish va kurashlar asnosidagina ochilmaydi Sinchkov ijodkor kundalik maishiy munosabatlar fonida ham har qanday odamning asl qiyofasidagi eng nozik chizgilarni yaqqol ko'rsata oladi.

"O'zi uylanmagansovchi" — ko'pplanli asar. Romanda Sulton bilan Dilorom sevgisi liniyasidan tashqari, Sulton va Saodat, Orif va Sharifa, Davlat va Gulsanam, Davlat va Ra'no, Nozim va Oygul, Jamol va Oygul, Nozim va Saodat, Dilorom va Sanjar, Sanjar va qo'shni Dilorom singari insoniy taqdirlar chizig'i ham tasvirga olingan hamda turli shaxslar tomonidan bosib o'tilgan bu taqdirlar yo'li mahorat bilan bir nuqtaga birlashtirilgan.

Bir qarashda roman o'quvchida turli-tuman mavzudagi quyuq-suyuq gap ko'pu, ammo ijtimoiy salmog'i bor xatti-harakatlar tasviri kamday taassurot qoldiradi. Lekin asar sinchiklab o'qilsa, bu ilk taassurotning aldamchi ekani ma'lum bo'ladi. Asarda juda yaxshigina voqealar tizimi bor. Lekin u chopacha-choplardan iborat emas. Ularning ko'pi xayoldan, undan ham to'g'rirog'i, ko'ngildan kechgan voqealar ekani bilan ko'ngildan joy oladi. Buning bir qator sabablari ham bor. Avvalo, sevgi va uylanish yoshidagi talaba yoshlar uchun muhabbatdanda salmoqliroq hodisaning yo'qligi chin. Ikkinchidan, hozir ulusimiz o'z taraqqiyotining shunday bosqichiga etdiki, endilikda har bir shaxsning baxtu baxtsizligi salmog'i jihatidan butun jamiyatning baxtu baxtsizligidan kam ahamiyatga ega emas deb qaraladigan bo'ldi. Endi hammani birdaniga baxtli qilish mumkin emasligi, demakki, har bir shaxsning alohida baxtli bo'lishiga imkon berish, bu yo'lda har kimning va hammaning qandaydir ezguliklar qilishi zarurligi anglab olindi. Romanda o'z baxtini o'zi qurmoqchi bo'lgan o'zbek yoshlarining intilishu urinishlari aks etadi. Asarda tabiatan jamoatchi o'zbekning hech qachon individualist bo'lolmasligi, uning hayotidagi nurli jihatlar ham, soyali tomonlar ham, albatta, ko'pchilik ishtirokida yuz berishi nekbin bir kulgi, hayotbaxsh humor yo'ldoshligida tasvirlangan.

Asarda muallif biror personajning biror xatti-harakati, o'yini nazaridan qochirmaydi, barcha timsollarning hamma jihatini hisobga oladi va ulardan o'rini foydalananadi. Ota-onasi yoshligidan atashtirib qo'ygan qizga emas, o'zi topgan qizga uylanmoqchi bo'lgan Sultonning sarguzashtlari tasviri asnosida millat tabiatida keyingi vaqtida ro'y bergen sifat o'zgarishlari jonbaxsh bir kulgiga yo'g'rilgan holda aks ettiriladi. Na jamg'argan puli, na yoshi ulug'roq tanishi, na boshpanasi bo'lgan Sultan ni Diloromga unashtirish mobaynida Nozim, Sultan, Orif, Davlat singari yosh yigitlar boshidan o'tkazgan voqealar ham har bir o'zbekning boshida borligiga ko'ra oddiyligi va odatiyligi, ham talaba yigitlar kechirgani uchun favquloddaligi bilan esda qoladi.

Sovchilikday jiddiy yumushga tutingan yigitlarning o'zlari nojiddiyligi, yoshidan, tutgan mavqeidan kelib chiqib, ularning jiddiy bo'lishi mumkin ham emasligi kinoromanda juda ishonarli tasvirlangan. O'zlari yosh, ko'ngillari beg'ubor bo'lgani, davraboshilar Nozim esa hazil va kinoyaga o'chligi sababli yigitlarning har bosgan qadami kulgili sarguzashtlarga yo'g'rilgan holda ko'rsatilganki, ustalik bilan qilingan tasvirdan tabiiy ravishda kelib chiqadigan samimiylkulgi o'quvchi ko'nglini yorishtiradi. Shaharda Diloromday sohibjamol qizning ko'nglini egallagan, yurtida esa ota-onasi Saodatday go'zalning boshini bog'lab o'tirishgan yuvoshgina Sultonga yurtdoshi Davlatning: "Tavba, nimangga bitta qizni qaratib o'tirishibdi, maymundan uncha farqing yo'q..." yoki "Qizlarning ham didi tushib

ketibdi-da, a. Sultonni ham yaxshi ko'rgandan keyin...”- deyishi tasviri yozuvchining yoshlar ruhiyatini g'oyat puxta bilishini ko'rsatadi.

Muallif kinoroman imkoniyatidan kelib chiqib, biror personajga o'zi tavsif bermaydi, balki ularning tabiatidagi etakchi qirralarni yo xatti-harakatlari tasviri, yoxud o'zgalar bergan baho orqali ko'rsatishga erishadi. Bu borada Sultonning: “Dadam oyimsiz hech ish qilmaydilar. Og'izlaridan oyimning tili chiqib turadi”- tarzidagi qisqagina e'tirofi ham kulgi uyg'otishi, ham talabaning otasi O'tkir bilan onasi Jumagul tabiatiga xos jihatlarni birvarakayiga namoyon etishi bilan e'tiborni tortadi.

Dadil, yovqur, ayni vaqtida, anchagini xudbin yigit Davlatning o'ynashi borasida u bilan Sultonning qisqagina suhbati tasviri bu yigitlarning har biriga xos xususiyatlarni ko'rsatishi jihatidan diqqatga loyiq. Tortinchoq, halol Sultonning: “Adashayapsan, jo'ra. Farishtasi yo'q buningning”,- degan e'tiroziga Davlat chapanichasiga qilgan: “Farishtasini nima qilaman, yurishga halal beradi”- tarzidagi javobda bu shaxslar ruhiyatiga xos etakchi belgilar aks etgan deyish mumkin. Muallifning mahorati shundaki, asardagi timsollarga xos jihatlar ularga aksiz markalar kabi o'zgarmaydigan qilib yopishtirib qo'yilmaydi. Romanda turli vaziyatlar tasviri asnosida har bir personajning o'zigagina xos, kutilmagan bir sifati namoyon bo'lishiga erishilgan.

Ko'proq o'zini o'ylaydigan, o'zgani tushunmaydiganday tuyulguvchi sur va maqtanchoq Davlat tabiatida ham asl yigitlarga xos jozibali jihatlar borligi uning choxonadagi g'ijillashuv vaqtida Sultonni janjalga aralashtirishni istamay, butun mas'uliyatni bo'yniga olib: “Ishkal chiqsa, sen quyonni sur. Bu mahallaga kuyov bo'lasan... Meni tanimaysan”,- degan gaplarida yorqin ko'rindi. Davlatni bu gaplarni aytishga majbur qilgan vaziyat tasviri esa “Hammaning kayfiyati buzilgan. Davlatning jag' muskullari o'ynaydi. Sobirning yuzida iljayishi qotib qolgan. Sulton erga qarab olgan, har zamonda Sharifga cho'chinqirab ko'z tashlab qo'yadi. Sharif esa tutaqib ketgan. Muhammad o'ziga o'zi biqinib olgan, indamaydi, bosiq alanglab qo'yadi. Ismat esa bo'lajak janjal hidini olib, ko'zlar o'ynaydi, kim gapirsa, shunga dalda berib qaraydi” remarkasida bo'rtiq qilib beriladi. Hech qanday izohu tushuntirishlari bo'limgan mana shu qisqagina tasvir olti kishining ayni vaqtdagi tabiatiga xos jihatlarni yorqin ko'rsata olgani bilan diqqatga loyiq.

Nozimining topqir, hozirjavob yigitligi Davlatning unga: “Qiz bola hali chalinmagan soz... Uni qo'lingga olganing bilan chalishni bilmasang, befoyda. Musiqa chiqmaydi. Men (g'ijjak chalib ko'rsatadi) chalishni bilaman, mening qo'limda qiz bola ohang beradi, kuylaydi”,- yo'sinidagi maqtanishiga qarshi:

“Mug’anniy, lekin bu g’ijjagingiz faqat g’ishillaydi. Ko’p chalingan bo’lsa kerak”, - deya bergen javobida yaqqol ko’zga tashlanadi. Bu javob Davlatning oilali ekanini bila turib, u bilan yurayotgan Ra’no shaxsiga berilgan baho ham edi. Muhimi shundaki, asarda bu shunchaki dahanaki jangda topqirlik bilan aytilgan gap emas, balki yigitning qat’iy ma’naviy pozisiyasi ekani aks etgan. Boshqa bir safar Nozim Davlatga kinoya bilan: “Siz yigitning guli, jonon yigit” deganida, Davlat unga: “Menga bunaqa bachkana gaplarni taqamang. Men gul emas, chinorman, bildingizmi!” - deb tepadan keladi. Shunda Nozim: “Ha, aytdim ishqilib, nimaga qarg’a qo’nib yuribdi deb?” - deya uni tamomila mot qiladi.

Nozimning taksichi Bahrom aka bergen savolga: “Mana, bu jo’ramiz bosh sovchi. Bu bilan ikkalamiz bosh sovchi o’rnbosarlari. Oramizda oddiy sovchi yo’q. Hamma amaldor” tarzidagi javobida bugungi o’zbek yoshlari ruhiyatidagi o’ziga xos humor tuyg’usi aks etgan. Kinoromanda Nozimning ishxonadagi akaxonni bilan tortishuvi ifoda etilgan quyidagi tasvirda ham yigitga xos topqirlik yorqin aks etgan:

“AHMADALI AKA: -Odam bo’lmaysan.

NOZIM: - Bo’laman.

AHMADALI AKA: - Qachon?

NOZIM: -Sizdan keyin. Akadan oldinga o’tish yaxshi emas. Odobsizlik bo’ladi”.

Romanda muammosiz, tinchgina yashaydigan odam bu dunyoda bo’lishi mumkin emasligi Orif va Sharifa munosabatlari tasviri orqali juda go’zal aks ettirilgan. Ota-onalari tomonidan bir-biriga unashtirilgan, o’zlari ham bir-biriga moyil bo’lgan bu ikki yosh tabiatlariga ko’ra boshqa-boshqa ikki olam! Orif yonib-yonib sevgisi, suygani bilan uchrashuvlarga chiqqisi, sarguzashtlar kechirgisi, muhabbat yo’lida qiynalgisi keladi. Ammo Sharifa o’z asrida yashasada, shaytoniy havaslarga bo’y bermaydigan qiz. Orif Sharifani yoqtiradi. Garchi, ochiq aytmasada, qizning ham yigitda ko’ngli yo’q emas. Lekin yoqtirgan qiziga osongina uylanib olish Orifga tekinxo’rlikday tuyuladi. U ham xuddi Sulton kabi iztirob chekkisi, sevgisi uchun kurashgisi keladi. Yigitning: “Mening ko’nglim... ichim huvillab turibdi-da. Oliy ma’lumotli, zamonaviy bo’la turib, o’zim sevib uylanmasam...” tarzidagi iqrorida ulkan bir armon aks etgan.

Orif erkin bo’lgisi, o’ynab kulgisi keladi. Yozuvchi kinoroman imkoniyatidan kelib chiqib, personajning: “O’zimga sig’may, toshib ketyapman, Sharifa! To’ygacha ham bir erkin yashaylik!” so’zlari va “Sharifa Orifga hayron bo’lib, tushunmay qaraydi. Ko’chadagi hamma Orifning ko’ziga juda baxтиyor ko’rinadi.

Uning ko'zi oldidan qo'lтиqlashib olgan baxtiyor juftlar o'taveradi" yo'sinidagi remarka vositasida har ikki timsolga tegishli xususiyatlarni esda qoladigan tarzda ifoda etadi. Ayrim o'rnlarda yozuvchi kinoroman janri talablarini buzib, remarka shaklidan foydalanib: "Bor, bor shunaqa qizlar, o'ttiz-qirq yil oldingi davrlarni eslang, eng botirlari yigitlar bilan kinoga tushardi, xolos" yo'sinida tasvirga o'zi aralashadi. Muallifning o'quvchiga samimiy sirdosh sifatida ko'nglidagisini aytgani asar ta'sirchanligini oshirgan.

Muallif shaharlik yigit Orifning tabiatidagi boshqa jihatlarni ham o'ta bilgichlik bilan ochgan. Garchi, topqir, gapga chechan bo'lmasada, ro'zg'oriy-maishiy muammolarni tushunish va hal qilishda uning Sulton, Nozim, hatto, oilali Davlatdan ham ancha balandligi ishonarli aks ettirilgan.

Romanda hayotning behad murakkabligi, inson umrining adoqsiz sinovlar bilan o'tishi yoshlikning "oltin davri" sanalmish "betashvish" talabalik yillari misolida ishonarli aks ettirilgan. Nozim hammaning ishonchi, suyangani, qaysi bir tanishining tashvishi bo'lsa, maslahat so'rab uning oldiga keladi. Aslida uning o'zi — ko'makka eng muhtoj odam. Negaki, o'ta oljanobligi sabab suyganini kursdoshi Jamolga "berib yuborgan". O'ziga oljanoblik bo'lib ko'ringan bu tutumi birvarakayiga ham o'zi, ham do'sti Jamol va ham suygulisi Oygulning baxtsizligiga sabab. Negaki, Oygul Nozim "berib yuborgani" bilan Jamolga tegmaydi, pokiza tuyg'ularini vaqtida qadrlamagani uchun Nozimni ham ko'nglidan chiqargan. Oygulning: "Hech kim to'g'ri kelganga uylanmaydi. Odam o'ziga to'g'ri kelganiga uylanadi", - degan gapida o'ziga to'g'ri keladigan odamni sezish, qadrlash, lozim bo'lsa, buning uchun kurashish kerakligining armoni ifoda etilgan. Oygul bu gaplarni talabaligida emas, oradan ancha o'tkazib ko'rishib qolishganida aytadi. Taqdirning shunday evrilishida ham o'zbek qizi ruhiyatidagi o'ziga xoslikning o'rni borligiga ishora qilinadi. Oygulning: "Yaxshi ko'raman deb ishontirib, keyin urra qochish ayb emasmi? Oqqan yoshlarimning kiyasi tutmaydimi? U inson meni shunaqa chuqur sevgan ekan, men inson-chi? Men sizni chuqur sevmaganmanmi? Hatto, siz chekkan tutunning zaharigacha yaxshi ko'rар edim-ku. Mana, hozir ham chekib, sizning oldingizda birga o'tirgandek o'tiribman. Shunday sevgimni do'stingizga oshirib yuborishga haqqqingiz bor edimi?" yo'sinidagi armonlarida shunchaki jazava emas, ulug' insoniy fofia bo'y ko'rsatib turibdi. Romanda odamni tushunishday oson va bir vaqtning o'zida qiyin yumush yo'qligi o'ta nozik aks ettirilgan. Nozimning: "Sizni sevar edim, doim ko'rgim kelar edi. Lekin uylanishga... bilmadim, bu haqda o'ylasam ham, tasavvur qilolmas edim. Orzu emas edi menga. Siz bilan bir aytishib qolganimdan keyin, Jamolga, bo'ldi, yig'ishtirdim. Oygul sizniki, deganman. Jamol, yo'q, siz shunchaki Oygulga achchiq qilyapsiz, degan. Umuman juda beg'ubor yigit edi-da

o'ziyam" tarzidagi xayoliy iqrori qanchalik mardona va oljanob bo'lsa, Oygulning: "Mening ko'nglimni ham o'ylaganmisiz? YO men xohlasam – men bilan, Jamol xohlasa – u bilan yuraveradi, deganmisiz?" yo'sinidagi iddaosi undanda to'g'ri va haqqoniy ekani o'quvchini hayratga soladi. Olamning ishlarini biror yo'naliishga solish u yoqda tursin, jo'nroq shaklda izohlash ham o'ta mushkulligi asarda shu tarzda ifoda etiladi.

"O'zi uylanmagan sovchi" romanining o'ziga xos yana bir jihat shundan iboratki, u hech kimga yo'l ko'rsatish, aql o'rgatishni da'vo qilmaydi. Tiriklikning o'zidagi kabi bu asarda ham savollar sanoqsiz-u, to'g'ri javoblar yo'q hisobi. Zero, hayotiy muammolarning universal echimi bo'lmaydi. Odam har safar qaytadan yashashi, yangidan yo'l tanlashi va boshqattan qadam tashlashi kerak bo'ladi.

Romanda millatning o'zgalarga tushunarsiz va malolli ko'rinsada, aslida o'ta jozibali odatlari bilan birga sog'lom aqlga unchalar xush kelmaydigan tutumlari ham borligi ko'zga tashlanmaydigan qilib tasvirlangan. Bu holatni romandagi personajlardan biri bo'lmish Akmal akaning: "Qiz bolani o'qishga kiritdikmi, tamom, burchimizni bajargandek, keyin ko'zimiz eshikda, kim so'rab keladi, kimga bersak ekan deb. Pul berib o'qitamiz, keyin o'qishini hech o'ylamaymiz. O'rab-chirmab erga berib yuborsak – bo'ldi! YAna: "E-e, xudoga shukur, qutuldik-ey!"- deymiz" tarzidagi iqrorida o'zbekning juda katta qismida qat'iy shakllangan psixologiya ilk bor ifoda etilgan. Chindan ham o'zbekda hamon qiz bolaga turmushga chiqishdan muhimroq missiyasi yo'qday qaralishi va bunga, hatto, qizlarning o'zları ham ko'nikkanlari g'alati hol.

Romanda sirliligi bilan "Mahallada duv-duv gap" filmidagi arxitektor kelinni esga soladigan Saodat obrazi ham juda yorqin ishlangan. Bu qaqajon qizning o'ziga soyaday ergashib yurguvchi Alisherga uni yoqtirmasligini dangal aytishi, o'ziga atashtirilganiga qaramay Diloromga ko'ngil qo'ygan Sultonni tushunishi, ayni vaqtda qizlarga xos quvlik bilan unga tegmoqchiday bo'lib ko'rinishi, bundan Dilorom bilan Sultonning qiyinalishlari tasvirlangan o'rinar o'quvchini ham boshqa personajlarni ham qaltis holatlarga soladi. Asarda Saodatning Diloromga qarata: "Ikkovimizga ham uylanaveradi. Ikkita nikoh. Men xursandman, Dilorom! YOmon kundosh bo'lib chiqsa-ya, deb rosa qo'rqqan edim. Oldingilar to'rtta ham xotin olar ekan-ku". Diloromning: "Rosa hazilkash ekansiz-ku",- degan gapiga "Hech hazil qilayotganim yo'q. Mana, Yaponiyaga ketyapman bu kishiga ham, o'zimga ham sarpo olib kelaman deb. Uydagilar hamma narsa tozasidan, firmenniy bo'lsin dedi. Pulini bersangiz... Yo'q, keyin hisoblashamiz, sizga ham olib kelaman. Bir oila bo'lgandan keyin... Sulton aka, ko'taring boshni. Ikkita qalliqqa xursand bo'lish o'rniga.... Qani, yuringlar, bir oila bo'lib muzqaymoq eylik",- deb

javob berishi bu qiz tiynatidagi qudrat va topqirlikni ko'rsatadi. Diloromning: "Sal bekatingiz yo'qroq ekanmi?" tarzidagi sanchiqli pichingiga xafa bo'lish o'rniغا sho'xchan kulib: "Diloromxon, darrov xulosa chiqarmang. Bekatimiz bitta. Mana ko'rasiz, yaxshi qizman. Juda namunali kundosh bo'lib ketamiz hali. Faqat hozirdan aytishmaylik. Boshidan dugona bo'lsak, bir umr ahlchilik. To'g'rimi, Sulton aka?"- deyishlari nafaqat Sulton bilan Diloromni, balki o'quvchilarni ham tahlikaga soladi. Sho'x qizning Sultonga: "...uy tomonga o'zim tushuntiraman. Siz bu yoqni tinchiting. Sovchingiz tezroq hal qilsin. Balki ikki to'yni bitta qilib o'tkazarmiz" tarzidagi gapi yigitni boshi berk ko'chaga kiritgani kabi o'quvchinida o'ylantirib qo'yadi. Kitobxon betoqatlik bilan echimni kutadi va ko'nglining bir chetida echim qanday bo'lishidan qat'i nazar unda asosiy o'rinda Saodat bo'lishiga ishonadi. Chindan ham Saodat o'quvchi ishonchini oqlaydi. Sevishganlar taqdirining izga tushishida Saodat Nozimdan kam o'rinn tutmaydi. Asarda bu ikki timsolning tabiatini va tutumlarida qandaydir yaqinliklar borligiga sezilar-sezilmas ishora qilinadi.

Shunisi diqqatga sazovorki, intrigalarga to'la bu asar boshidan oxiriga qadar beg'ubor va hayotbaxsh kulgi bilan yo'g'rilgan. Nafaqat Nozim bilan Saodat, balki katta-kichik barcha timsollarning so'zlari vaziyatga qarab og'ir-engil qochirim, kinoya va piching bilan yo'g'rilgan. Bu hol Davlatni izlab kechasi unikiga kelgan Ra'no bilan Gulsanam o'rtasida bo'lib o'tgan qiqagina suhbatda ham ko'zga tashlanadi:

"RA'NO: - Ishim... bir ishim bor edi.

GULSANAM: - Ha, Davlat akangiz bilan birga ish qilasizmi? Yaxshi, mana bu bola ham Davlat akangiz bilan mening ishiman. Sizning ishingiz ham shunaqami? Sho'x-da bu akangiz". Kishini o'yiblar olguvchi bu so'zlar ham aslida shallaqi Ra'no tushgan holatni ko'rsatishi, ham rashkdan yonib borayotgan Gulsanamning ruhiy dunyosini ifodalashi, ham o'ta qaltis vaziyatda kulgi qo'zg'ay olishi jihatidan tengsizdir. Davlatni Gulsanam bilan yarashtirishi kerak bo'lgan Nozimning: "Yolg'on gapiramanmi? Nima, Ra'no degan o'ynashi yo'q, deb aytamanmi?"- degan so'rog'iga Davlatning: "Bor, deysizmi bo'lmasa? Nima, sizning vijdoningizni deb, men oilamdan ajralaymi?"- tarzidagi e'tirozi o'quvchida ham kulgi qo'zg'ashi, ham o'ylanishga majbur etishi bilan e'tiborli.

Butun asar davomida o'ychan va jiddiy qiz sifatida tasvirlangan Diloromning Sultonga aytgan: "Saodatingiz kurashsa, men qarab turamanmi? Ja anoyisini topibdi, sherikchilikka er qiladigan!"- tarzidagi qat'iyatida ham kulgi sachrab turadi. Hatto, onasining Sultonga bermayman, chet elda yashayotgan Sarvarga tegasan degan gapiga Diloromning: "Siz bunga bermasangiz, men ham unga

tegmayman!"- degan gapi zamiridagi mantiqsizlikka Sharofat aya tilidan: "Voy, bunga bersam, unga ham tegar edingmi?" tarzida berilgan javobdan ham kulgi tomib turibdi.

Romanda o'zbekning yashash, o'y lash, ta'sirlanish va ta'sir qilish tarzi tufayli unda qaror topgan ruhiyat to'lg'amlari o'ta nozik ko'rsatilgan. Yozuvchining mahorati sababli Diloromni Sultonga berishga zo'rg'a ko'ngan onaning qizi bilan suhbat tasvirida ham zarra bo'lsin zo'rakilikka yo'l qo'yilmagan: "SHAROFAT AYA: - Voy, ona qizim... Men seni norozi bo'laman deb o'stirmadim. Ko'nglingdagiga o'ynab kulib beraman. Hay, uni bir aytib ko'rdim-da, balki qaytarsan gapingdan deb, sinadim.

DILOROM: - Ixtiyorim sizda, aya. Siz katta qildingiz, siz bering.

SHAROFAT AYA: - Men ochiq ko'nglim bilan beraman, agar sen xo'p desang". Bu erda o'zbek ayolining toza ko'ngli aks etib turibdi. Agar u kecha yigit boshqa erdan kelgani va ota-onasining roziligini olmagani uchun qizimni bermayman deganida qanchalar samimi bo'lsa, endi unga berayotib qiziga aytgan gaplarida ham shunchalar samimi. Qizi ham xuddi shunday. Chunki o'zbekning ruhiyat tarzi shuni taqozo etadi.

Asarda o'zbek so'zining beqiyos jilvasi aks etgan, har bir ifodasidan kulgi sachrab turgan o'rinalar son-sanoqsiz. "Odam yolg'iz yashasa, hamma narsasi gapiradi", "Bo'lmaydigan ishning o'zi bo'lmaydi" kabi ifodalar tilimizning imkoniyatlari nechog'li ekanini namoyon etadi. Romandagi: "Murod aka beparvo nos otmoqchi bo'ladi, Sharofat aya unga ola qaraydi. U shosha-pisha nosqovog'ini cho'ntagiga soladi" singari jo'ngina remarkalar zamirida ham personajlar tabiatи aks etgani asarning badiiy kuchidan dalolatdir.

Hech kim va hech nima fosh etilmagan, inkor qilinmagan, balki xilma xil, bir-biriga o'xshamaydigan, ayni vaqtida bir-biriga juda o'xshash odamlarning ichki dunyosi ko'rsatilgan bu roman adabiyotimizdagи o'ziga xos estetik hodisadir. Milliy ruhning yashovchanlik qudrati va milliy tilning ifoda imkoniyatlari yorqin aks etgan ushbu asar o'quvchilar ko'nglidan joy olishiga ishonamiz

Qozoqboy YO'LDOSH

2010 yil 23 noyabr